**Yondosh mavzu:**
metall pullar.

Sxema, qiymat,
miqdor, narx.





**1.** Bitta oltin tangani 12 ta kumush tangaga almashtirish mumkin. 2 ta oltin tanga uchun nechta kumush tanga olish mumkin? 3 ta oltin tanga uchun-chi? 5 ta oltin tanga uchun-chi?




**2.** Sxemalarni o‘rganing. Har bir sxema uchun daftaringizga tegishli formulani yozing va ulardan masalalarni yechishda foydalaning.

a) Qadimda bitta sigir uchun 50 kumush tanga berilgan. 5 ta sigirga qancha tanga berilishi kerak?






b) Xon 3 ta qilich uchun 30 000 kumush tanga bergan. Bitta qilichning narxi qancha bo‘lgan?






d) Bitta zarbof to‘n 6 kumush tanga turadi. 180 tangaga nechta zarbof to‘n sotib olish mumkin?






T.ME/TRM_METODIKA_UZ

**3.** Masalani yechish uchun sxema tuzing. Sxemada 2 katakni 100 tanga deb oling.

Qadimda uy hayvonlari juda qimmat bo‘lgan. Masalan, bitta tuyaning narxi 100 kumush tangagacha yetgan. Savdogarga 8 ta tuyadan iborat poda qanchaga tushgan?

**4.** Hisoblang. Bizning mamlakatimizda ishlatilgan oltin va kumush tangalar qadimda qanday atalganini toping.

| | | | |
|---|---|---|---|
| **O** | 14 534 + 45 331 | **M** | 35 817 + 27 338 |
| **D** | 100 000 – 37 993 | **N** | 313 453 – 245 484 |
| **A** | 59 · 1 066 | **R** | 303 · 202 |
| **I** | 310 600 : 5 | **H** | 523 386 : 9 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 62 007 | 62 120 | 67 969 | 59 865 | 61 206 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 62 007 | 62 120 | 61 206 | 58 154 | 62 894 | 63 155 |

**5.** Katta pirog va 4 ta kulcha uchun 152 000 so‘m to‘landi. Agar pirogning narxi 120 000 so‘m bo‘lsa, bitta kulcha qancha turadi?




**6.** Har bir tovar uchun qancha to‘langanligini aniqlang.



**7.** Taqqoslang.

4 h 16 min □ 400 min    12 min 12 s □ 730 s

225 min □ 3 h 55 min    534 s □ 8 min 24 s

**8.** Tenglamalardan birini tanlang va uni tekshirish bilan yeching.

$320 - m \cdot 12 = 80$    $500 : (t - 24) = 25$

**9.** Masalalarga doir ifodalar yozing va ularning qiymatini toping, bunda:

$a = 5$, $b = 45$ tanga;
$a = 12$, $b = 35$ tanga.

Usta $a$ ta qo'g'irchoq yasadi va ularning har birini $b$ tangadan sotmoqchi. Agar u hamma qo'g'irchoqlarni sotsa, qancha tangaga ega bo'ladi?

**10.** Onamda pallali tarozi va 100 g li tarozi toshi bor. U 4 marta tortishda 1 500 g donni torta oladimi? Agar torta olsa, buni qanday bajarish kerakligini tushuntiring.



**11.** Eng qulay o'lchov birligiga keltirib, hisoblang.

6 h 14 min 15 s + 4 h 27 min 40 s
5 h 43 min 18 s + 1 h 42 min 55 s
8 h 23 min 52 s – 3 h 13 min 43 s
7 h 15 min 12 s – 2 h 38 min 49 s

**12.** Stol va 6 ta stuldan iborat to'plam uchun


80 ta kupyur


60 ta kupyur

to'landi. Stolning narxi 1 900 000 so'm. Bitta stul qancha turadi?



T.ME/TRM_METODIKA_UZ